


## ISTE'MOL BOZORI

(2019 yil yanvar-avgust oylari)


Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 1842,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,7 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 245,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,3 b.%), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 1597,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 169,0 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,4 %ga ko'paygan) tashkil etdi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd.so'm)



Chakana savdo tovar aylanmasida katta hajmga ega bo'lgan Guliston shahri (770,7 mlrd.so'm), Sirdaryo tumani (289,9 mlrd.so'm), Yangiyer shahri (163,3 mlrd.so'm), Mirzaobod tumani (155,0 mlrd.so'm), ijobiy tasirini ko'rsatmoqda.


Chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari, (%)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 b.% ga ko`paydi va 245,0 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 13,3 % ulushiga to`g`ri keladi.


Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra 1597,8 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 2,4 % ga o`sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 86,7 % ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi ulishi, (%)



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi 2015 yil yanvar-avgust oylari 89,4 % ni tashkil qilgan bo'lsa 2019 yilga kelib kichik tadbirkorlikning ulishi 86,7 % ni tashkil qildi.

### Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulishi, (%)




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Xovos t (99,3 %), Shirin sh (99,1 %), va Boyovut (98,3%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 13,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Guliston shahrida (26,0 %), Yangiyer shahri (8,3 %) va Sayxunobod tumani (4,9 %) kuzatildi.

### Chakana savdo aylanmasi va kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasidagi hajmi

	Chakana savdo aylanmasi (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	1842,8	110,7	1597,8	102,4
Guliston sh.	770,7	122,5	570,5	102,7
Shirin sh	25,1	101,7	24,9	102,3
Yangiyer sh	163,3	105,0	149,8	101,6
tumanlar:				
Boyovut	88,9	100,5	87,3	102,6
Guliston	66,2	104,9	64,1	102,5
Mirzaobod	155,0	105,0	148,8	102,7
Oqoltin	87,1	103,2	85,0	101,5
Sardoba	74,6	104,3	72,7	102,3
Sayxunobod	57,4	106,8	54,5	102,4
Sirdaryo	289,9	102,4	276,0	102,3
Xovos	64,6	101,4	64,2	101,7

### Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, yanvar-avgust oylari (%)



2019 yil yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 2211,2 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 8,8 % ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-avgust oylarida o`tgan yilga nisbatan o`rtacha jon boshiga tovarlar aylanmasining eng yuqori ko`rsatkichlari Guliston shahri (8621,6 ming so`m), Yangiyer shahri (3824,1 ming so`m) va Sirdaryo tumanida (2295,9 ming so`m) kuzatildi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Xovos tumanida (687,0 ming.so`m), Boyovut tumani (695,9 ming.so`m) va Sayxunobod tumanida (753,6 ming so`m) qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming. so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>2211,2</b>	<b>108,8</b>
Guliston sh.	8621,6	121,3
Shirin sh	1351,8	101,1
Yangiyer sh	3824,1	102,8
tumanlar:		
Boyovut	695,9	98,8
Guliston	932,2	102,2
Mirzaobod	2164,1	102,6
Oqoltin	1704,6	101,6
Sardoba	1149,7	102,4
Sayxunobod	753,6	105,0
Sirdaryo	2295,9	100,7
Xovos	687,0	99,7

Jumladan, 2019 yilning yanvar-avgust oylari chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,9 %ni tashkil etib, 34,9 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 6,8 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 100,0 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


## SIRDARYO VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-avgust oylari)

Yanvar-avgust oylari viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1032,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. 2018 yilning shu davriga nisbatan 0,2 %ga kamaydi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra 675,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,9 %ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 65,4 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, Yangiyer shahrida (100,0 %), Shirin shahrida (99,7 %) va Sirdaryo tumanida ( 88,9 %) yuqori bo'lgan.

### Yirik va kichik korxonalar ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar 2019 yil yanvar-avgust oylari yakunlariga ko`ra, 357,1 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 7,1 %ga kamaydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 34,6 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, Sardoba tumanida (98,1 %), Boyovut tumanida (92,9 %) va Xovos tumanida (92,3 %) yuqori bo'lgan.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	1032,7	99,8	357,1	92,9	675,6	103,9
Guliston sh.	365,6	93,4	47,3	55,8	318,3	103,7
Shirin sh	0,5	102,7	0,0	26,2	0,5	103,6
Yangiyer sh	20,5	103,6	-	-	20,5	103,6
tumanlar:						
Boyovut	73,8	83,6	68,6	82,4	5,3	104,0
Guliston	25,7	103,5	16,3	104,0	9,4	102,8
Mirzaobod	67,6	115,2	16,8	165,6	50,8	104,7
Oqoltin	21,0	105,8	16,6	106,7	4,4	102,7
Sardoba	58,5	93,6	57,4	93,4	1,1	103,8
Sayxunobod	118,9	116,3	82,3	123,6	36,6	102,7
Sirdaryo	255,2	106,0	28,4	123,3	226,8	104,2
Xovos	25,4	98,3	23,4	97,8	1,9	104,6



### Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining ulishi, (%)



Ulgurji savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Guliston shahrida (35,4 %), Sirdaryo tumanida (24,7 %), Sayhunobod tumanida (11,5 %) qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi  
bo'limi  
Tel.:71-230-86-34